

ADABIY TA'LIMDA RIVOJLANTIRUVCHI EKSKURSIYA TEXNOLOGIYASI

Duschanova Nilufar Sobirbayevna

UrDU o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqola o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining xorijiy tajribalar asosida boyitish yo'llarini yoritib berishi bilan ahamiyatli. Maqolada fransuz metodistlarining "rivojlantiruvchi ekskursiya (sayohat)" texnologiyasi tatbiqining milliy uyg'onish davri adabiyoti mavzusini o'rganishda joriy etilishi bayon etilgan.*

***Tayanch so'z va iboralar:** ijtimoiy muhit, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, rivojlantiruvchi texnologiya, rivojlantiruvchi ekskursiya (sayohat), hissiy munosabat, intensiv usul.*

Rivojlantiruvchi ta'lim – o'quvchining potensial imkoniyatlarini rivojlantirishga hamda ularning ta'lim olish jarayoniga ta'sir etishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni. O'qitishning mazkur shakli o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, borliqni anglash bilan bir qatorda, ijtimoiy hayotga mustaqil moslashish maqsadini amalga oshirishga qaratilgan. Adabiyot darsida rivojlantiruvchi **ekskursiya (sayohat)** pedagogik jarayonda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish shakllaridan biri bo'lib, u har bir o'quvchini faollashtirishi bilan birga, unga sub'yektivligini ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar shunchaki tashrif buyuruvchilar emas, ular tegishli faoliyatga jalb qilingan ishtirokchilarga aylanadi.

Rivojlantiruvchi ekskursiyaning maqsadi - badiiy tasvirlarni to'liq idrok etishni ta'minlaydigan qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Maktab muzeyida rivojlantiruvchi ekskursiyani tashkil etishning eng samarador shakli fransuz ustaxonalaridir. Ustaxona – "Fransuz zamonaviy ta'lim guruhi" JFYEN jamiyati pedagog vakillari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv jarayonini tashkil etishning

zamonaviy shaklidir. Misol tariqasida adabiyot darslarida milliy uyg'onish davri adabiyoti haqida muayyan tasavvur uyg'otishga qaratilgan rivojlantiruvchi ekskursiyalarni tashkil etish namunasini ko'rib chiqamiz. Dars avvalida o'qituvchi ekskursiyaning noan'anaviy shaklda tashkil etilishi, sayohatni qulay sharoitda o'tirib amalga oshirish mumkinligini aytib o'tadi hamda quyidagi faoliyat ketma-ketligini ma'lum qiladi :

1. Bir daqiqalik qisqa videoni tomosha qilish va shu bilan birga uning ta'sirida paydo bo'ladigan assotsiyalar ,his-tuyg'ularni og'zaki tasvirlash bosqichi (XXI asr boshlarida Turkistonda mavjud ijtimoiy turmush aks ettirilgan video , jadidchilik harakati namoyandalari suratlari qatag'on bilan bog'liq tarixiy hujjatlar namoyishi).

2. Shaxsiy his-tuyg'ular va namoyish etilgan tasvirlarni birlashtiradigan bitta so'zni topish va yozish bosqichi .O'qituvchining sayohat mavzusiga doir ilk taassurotlarni aniqlashi :

– Sizningcha,bizning sayohatimiz nima haqida bo'ladi ? (*jadidchilik haqida*)

Mazkur bosqich ishlab chiqqan metodistlar tomonidan “*Mustaqil izlanish*” bosqichi deya nomlanib,gipoteza ,yechim,matn,chizma,loyihani individual yaratish bosqichi hisoblanadi.O'quvchilar o'z shaxsiy fikrlarini shakllantiradilar .

3. Muzey eksponatlarining fotosuratlari yoki predmetlarining namoyishi. O'qituvchi o'quvchilarga guruh bo'lib namoyish etilayotgan eksponatlardan foydalangan holda ijodiy ish bajarishni,uning natijasini umumiy guruh taqdimotida aks ettirishni so'raydi:

– Qarshingizda eksponatlarda o'z aksni topgan zamon tasviri turibdi.Har biringizdan ob'yektlarda aks ettirilgan shaxsiy ijodingizni guruhning umumiy taqdimotiga joylashtirishingizni so'rayman.

4. Yakka holda yaratilgan fikr-mulohazalarni birlashtirib, guruhning umumiy tushunchasini shakllantirish bosqichi.

– Har bir guruhingiz a'zolarining fikrlarini diqqat bilan tanishib chiqing va umumiy tushunchani shakllantiring: JADIDCHILIK HARAKATI NIMA? Uni rasm bilan tasvirlashga harakat qiling.

5. Barcha guruhlarda bajarilgan ijodiy ishlarni bir kollaj ustida birlashtirish . O'qituvchi guruhlarining ijodiy ishlarini bir mavzu ostida birlashtirishni so'raydi:

– Endi biz barcha ijodimizni bir-birimizga taqdim etamiz,shu orqali o'z his-tuyg'ularimiz,tushunchalarimiz,g'oyalarnimizni mustahkamlaymiz,kengaytiramiz.

Keling,asarlarimizni bir kollaj ostida to'playmiz .

6. Insho, xat, she'r va shu kabi ijodiy ishlarni yozish.O'qituvchi namoyish etilgan eksponatlar asosida insho,xat, she'r kabi biror ijodiy ish yozishni so'raydi:

– Bugun siz noyob eksponatlar: jadidchilik harakati namoyandalarining rasmlari, hujjatlari,shaxsiy buyumlari bilan tanishish imkoniga egasiz. Keling,ushbu eksponatlar bizga nimalarni ayta olishini tasavvur qilishga harakat qilaylik hamda “Eksponatlar tarixdan so'zlaydi ” yoki “Buyumlar tilga kirganda” mavzusida ijodiy hikoya yarataylik. Muhimi,yozilgan ijodiy ishlar: ertak,insho,xat, she'rlarda aks ettirilgan voqealar o'sha eksponat – buyum tilidan tasvirlanishi kerak.

7. Ekskursiyaning oxirgi bosqichi o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega ,zero, bu bosqich o'quvchi shaxsiyatini ma'lum mazmunga ega ko'rsatmalarga amal qila olishini namoyish etadi.

Bu ekskursiya davomida o'quvchilarda paydo bo'lgan his-tuyg'ular,his-tuyg'ularning ifodasi o'qituvchi –ustaning keyingi shu kabi sayohatlarni tashkil etishida faoliyatni takomillashtirish uchun g'oyat boy metodik material hisoblanadi. Ta'riflangan texnologiyaning yetakchi usuli–kuzatish usuli bo'lib,o'quvchilarning dalillar ,hodisalarni bevosita idrok etish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.Kuzatishni turli usullarda qayd etib borish mumkin. O'qituvchi-usta-ekskursovod faoliyatining asosiy ob'yekti o'quvchi ekanligini,uning g'oyalari,his-tuyg'ulari,hayajoni muhimligini yodda tutishi kerak. Aks holda, ekskursiya ishtirokchilarida “insayd” – yangi narsalarni kashf

qilish, fanda qat'iy o'rnashib qolgan qoidalardan holi noma'lum hodisani erkin anglash, ijodkorlik tuyg'usi hosil bo'lmaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 11-sinf. 1-qism (2018, B.To'xliyev, B.Karimov, K. Usmonova) – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti ,2018.
2. Adabiyot. 11-sinf. 2-qism (2018, B.To'xliyev, B.Karimov, K. Usmonova) – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti ,2018.
3. Adabiyot. 10-sinf. 1-qism (2018, B.To'xliyev, B.Karimov, K. Usmonova) – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti ,2017.
4. Адабиёт ўқитиш методикаси. /С.Долимов, Ҳ.Убайдуллаев, Қ. Ахмедов/ - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1967.
5. Адабиёт ўқитиш методикаси. /А.Зуннунов, Н.Ҳотамов, Ж.Эсонов, А.Иброҳимов/ - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.
6. Давыдов В. В. Проблемы развивающего обучения. М., 1986. С. 94.
7. Шерматова У.С. (2020). Чўлпон ижодида ватан, халқ ва инсон талқини. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 301-308.
8. Шерматова У.С. (2020). Чўлпон ижодида табиат эстетикаси. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 338-345.
9. Шерматова У.С. (2020). Чўлпон ижодида истиқлол ғоялари. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 369-373.